



TIJORAT BANKLARIDA KASSA ISHINI TASHKIL ETISH, NAQD PUL VA BOSHQA QIMMATLIKLARNI INKASSATSIYA QILISH AUDITI

Yusupova Sevara Ilhomjonovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya

akademiyasi magistri

jumaboyevakumush1136@gmail.com

Tel: +998881981136

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining hozirgi sharoitida pul iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, moddiy boyliklarni yetkazib berish va xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq barcha operasiyalar pul hisob-kitoblari bilan yakunlanadi hamda banklar zimmasiga yuklatiladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi holatida keng islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish, mamlakat bank tizimini kassa ishini tashkil etish va naqd pul va qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini amalga oshirishdek kerakli bo'lган yangi va asosiy vazifalar belgilab berildi.

Kalit so'zlar: Ichki audit, moliyaviy hisobot, kassa, iqtisod, xalqaro standart, kassa operasiyalari, naqd pul, inkassatsiya, tijorat banklari, memorial order, akkreditivga ariza.

Аннотация: В данной статье показано, что в современных условиях развития Республики Узбекистан деньги являются неотъемлемой частью экономической деятельности. Поэтому все операции, связанные с доставкой и обслуживанием материальных ценностей, завершаются денежными расчетами и возлагаются на банки. В современном состоянии развития экономики определены новые и основные задачи, необходимые для осуществления широких реформ, коренного изменения всех аспектов жизни общества, организации кассовой работы банковской системы страны и осуществления инвестиционной деятельности на рынке наличных денег и ценных бумаг.

Ключевые слова: Внутренний аудит, финансовая отчетность, касса, экономика, международный стандарт, кассовые операции, наличные деньги, инкасация, коммерческие банки, мемориальный ордер, заявка на аккредитив.

Abstract: In this article, money is an integral part of economic activity in the current conditions of the development of the Republic of Uzbekistan. Therefore, all transactions related to the supply and service of material goods are completed with monetary calculations and entrusted to banks. In the current state of the development of the economy, new and basic tasks were set, which are needed, such as the implementation of broad reforms, the radical transformation of society in all aspects, the organization of cash work of the country's banking system and the implementation of investment activities in the cash and securities market.

Keywords: Internal audit, financial reporting, cash register, economics, international standard, cash transactions, cash, collection, commercial banks, memorial order, letter of credit application.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kassa ishini ya'ni kassa kitoblari, kassa jurnallari, blankalar va varakalarni rasmiylashtirish elektron shaklda yo'lga qo'yilishini tashkil etish, ichki audit tekshiruvida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish orqali, kassa operasiyalardan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy jixatdan asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chikishdan iborat.

Banklarda kassa ishlarining tashkil etilishi-pul aylanmasi naqd pul aylanmasi hamda naqdsiz pul aylanmasini o'z ichiga oladi. Naqd pulsiz pul aylanmasi butun pul aylanmasining 80-90%ini tashkil etadi. Naqd pulsiz pul aylanmasi asosan korxona va tashkilotlar, ular bilan soliq nazorati, sug'urta, pensiya va boshqa fondlar bilan bo'ladigan hisob kitoblarida o'z aksini topadi. Aholi va turli korxona va tashkilotlar, aholi guruhlari o'rtaсидаги hisob-kitoblar naqd pul yordamida amalga oshiriladi. Masalan, aholiga ish haqi, nafaqa, mukofot, gonorar, xizmat safari harajatlari to'lashda va, aksincha, aholi tomonidan savdo tashkilotlari, maishiy xizmat, madaniy oqartuv tashkilotlari, dehqon bozori, oziq-



ovqat va kiyim-kechak bozorida aholi guruhlari o'rtasidagi aloqalarda naqd pul ishtirok etadi.

Adabiyotlar sharhi.

“Firmada qiymati tushunchasi aktsiyadorlar, menejerlar uchun ahamiyatli bo'lib, potentsial investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun global miqyosda muhim hisoblanadi, chunki u firmaning qiymatini o'lchaydi va ijobiy jamoatchilik qarashini keltirib chiqaradi. Naqd pul boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarga qaramay, Keniyadagi tijorat banklari umumiy ishlashi pasayish tendentsiyasida, shuning uchun tijorat banklarining moliyaviy qiymatining salbiy ta'siri. asosiy maqsad sifatida naqd pulni boshqarishning Keniyadagi tijorat banklarining moliyaviy qiymatiga ta'sirini baholash” (A.Calystus, E.Kiganda va J.Otsyulah, 2022).

“Banklar o'zlarining likvidlik xavfini optimallashtirish, ularning umumiy tanlovi bilan bog'liq tashqi omillarni hamda moliyaviy tizim xavfi hisobga oladilar. Keniyadagi bank sektori likvidlik bilan bog'liq muammolarga va moliyalashtirishdan bozor xavflarigacha duch kelgan. Tadqiqotning maqsadi pul zaxiralarning ta'sirini baholash hamda Keniyada tijorat banklarining ishlashi hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, naqd pul zaxiralari kuchli salbiy ta'sirga ega bo'lib, kapitalning rentabelligi bilan o'zaro bog'liqlik, kapitalning ishlashi bilan sezilarli salbiy munosabatlarni beradi. Tadqiqot banklarga naqd pul zaxiralarni minimallashtirish va buning o'rniga sarmoya kiritishni tavsiya qildi, samarali investitsiyalar bu - pul, ularning manbalari sifatida diversifikatsiya va investitsiyalarni diversifikatsiya bu mablag'lar hisoblanadi” (J.Aloys, A. Vitalis va O. Simeyo, 2018).

“Tijorat banklari tomonidan mijozlarga xizmat ko'rsatishda albatta zamon talablari asosida, yangi texnologiyalardan foydalangan holda, mijozlarga qulayliklar yaratgan holda xizmat ko'rsatishi banklararo raqobat bozorida muhim talablardan hisoblanadi. Aks holda bankning mijoz uchun kurashda mag'lub bo'lishi holatiga olib kelishi mumkin. Bunda banklar doimiy tarzda mijozlarga ko'rsatilayotgan masofaviy xizmatlari turlari va sifat darajasini tahlil qilib borgan holda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadilar. Bugungi kun nuqtai-nazaridan olib qaraganda, kelajak raqamli (onlayn) bank xizmatlari asosida faoliyatini yuritadigan banklar bajaradigan faoliyatini rag'batlantiradi” (Z.Z.Xudayberganova, 2022).

“Bank aktivlari likvidliligi – tijorat banklari aktivlarining qanchalik darajada tez pul mablag'iga aylanishi va shu orqali bankning barcha pul majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq va uzluksiz bajarilishini ta'minlash, uning ishonchliligi va iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq mablag'larning etarlilagini belgilaydi. Bank aktivlari likvidliligi tijorat banklarining depozitorlari, kreditorlari va aktsiyadorlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini, yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish, kredit berish va investision faoliyatini rivojlantirish qobiliyatidir” (B.B.Izbosarov, 2022).

“Jahon iqtisodiyotida pul kapitalining doimiy ravishda to'lib-toshganligi mavjud bo'lib, bu erda moliyaviy oqimlarning o'zagi moddiy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, bu oqimlarning yo'nalishiga birinchi navbatda iqtisodiyotning holati, o'zaro erkinlik ta'sir qiladi. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo va boshqalar. Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishi mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'sishi, kapital, tovar va xizmatlarning jahon bozorining vujudga kelishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashishi, jahon xo'jalik tizimining shakllanishi, xalqaro miqyosda xalqaro va



iqtisodiy munosabatlarning kuchayishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi" (N.X.Tursunov, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda tijorat banklarida kassa ishi, bugungi holati va rivojlantirish istiqbollarining nazariy asoslari o'rganildi, kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilish auditini olib borish, istiqbolda rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi, shuningdek mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.


Har bir tijorat bankida korxona va tashkilotlarga kassa xizmatini ko'rsatish uchun bir qancha kassalar tashkil etiladi, ya'ni bank muassasasi o'z tarkibida tarkibiy bo'linma-kassa operatsiyalari bo'limiga ega.

Pul yoki boshqa boyliklarni qabul qilish va berish uchun kassa operatsiyalari bo'limi tarkibida quyidagi kassalar tashkil etiladi. Kirim cassasi, chiqim cassasi, kirim-chiqim cassasi, maydalab berish cassasi, kat'iy hisobda turadigan blankalarni berish cassasi, kechki kassalar tashkil etiladi. Ko'rsatib o'tilgan kassalar kassa operatsiyalari hajmi va kassa xodimlarining belgilangan shtatidan kelib chiqqan holda bank muassasasi farmoyishiga binoan tashkil etiladi. Yirik bank muassasalarida kassa operatsiyalari bo'limini boyliklar bilan ishlashdan ozod etilgan xodim, ya'ni kassa operatsiyalari bo'limining boshlig'i hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida to'lovlarni amalga oshirishda quyidagi to'lov hujjatlaridan foydalaniladi:

- to'lov topshiriqnomasi;
- to'lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- memorial order;
- akkreditivga ariza;
- kirim va chiqim kassa to'lov hujjatlari.


To'lov topshiriqnomasi - mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan topshiriqnomada belgilangan summani mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjatidir. To'lov talabnomasi - mablag'larni to'lovchining hisobvarag'idan unda ko'rsatilgan summani to'lash to'g'risidagi mablag'larni oluvchining talabi nazarda tutilgan to'lov hujjati hisoblanadi. Inkasso topshiriqnomasi - unda ko'rsatilgan mablag'larni to'lovchining banki hisobvarag'idan so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo'yicha mablag'larni oluvchining topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjati. Akkreditivga ariza - mablag'larni to'lovchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summani oluvchining akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar uchun ochilgan bank hisobvarag'iga o'tkazishida qo'llaniladigan to'lov hujjati.



1-rasm. Mankaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni

Manba: Markaziy Bank ma'lomitlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. [Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki \(cbu.uz\)](#)

Keltirilgan tahliliy ma'lumotdan shuni aytish mumkinki, banklararo to'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar soni hamda ulushi keltirilgan bo'lib shulardan, inkasso topshiriqnomasi 3 882 184 tani ya'ni 6.8%ni tashkil qilmoqda, banklarda ushbu holatni naqd pul va boshqa qiymatliklarni banklararo harakatida ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda muomaladagi naqd pul massasi holati O'zbekistondagi holati bo'yicha quyidagi tahliliy ma'lumotni keltirish mumkin, ya'niki, O'zbekistonda muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi 2022-yil boshida 20%ni tashkil etgan.



2-rasm. Muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi

Manba: Markaziy Bank ma'lomitlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. [Bank tizimi faoliyati ko'rsatkichlari - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki \(cbu.uz\)](#)

2022-yil 1-yanvar holatiga muomaladagi naqd pullarning umumiy pul massasidagi ulushi 20 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 foiz bandga pasaydi. YIMga nisbatan ulushi esa 4,1 foizdan 3,9 foizgacha pasaydi. Shuningdek, O'zbekistonda



pul agregatlari holati statistik ko'rsatkichlarga asosan, 2024-yil 1 chorak holatiga ko'ra keng ma'noda pul massasi 206 219 mldr.so'mni tashkil qilgan.

1-jadval

O'zbekistonda banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan eng ko'p hisob-kitoblarda qo'llanilgan inkasso topshiriqnomasi bo'yicha 2024-yil yanvar oyi uchun ming. so'm

| № | Bank nomi | Inkasso topshiriqnomasi | |
|---------------------------|-------------------------------|-------------------------|-------------|
| | | soni | summasi |
| 1 | Markaziy bank | 26 | 826,084 |
| 2 | Milliy bank | 13,206 | 58,973,705 |
| 3 | O'zsanoatqurilishbanki | 11,311 | 87,445,369 |
| 4 | Agrobank | 65,575 | 126,652,771 |
| 5 | Mikrokreditbank | 17,917 | 14,280,891 |
| 6 | Xalq banki | 22,849 | 18,056,168 |
| 7 | Garant bank | 3,480 | 3,466,065 |
| 8 | Biznesni rivojlantirish banki | 10,559 | 15,483,716 |
| 9 | Turonbank | 5,772 | 13,536,265 |
| 10 | Hamkorbank | 18,093 | 34,769,587 |
| 11 | Asaka bank | 8,029 | 17,799,401 |
| 12 | Ipak Yo'li banki | 12,320 | 23,871,607 |
| 13 | Ziraat bank Uzbekistan | 583 | 2,379,155 |
| 14 | Trastbank | 6,634 | 23,406,111 |
| 15 | Aloqabank | 5,488 | 11,629,157 |
| 16 | Ipoteka-bank | 23,014 | 52,620,090 |
| Hujjat turi bo'yicha jami | | 254,546 | 599,857,361 |

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar asosida tijorat banklarida tashkil qilingan hamda amalga oshirilayotgan kassa ishi holati, naqd pul, pul massalari hamda ular bilan bog'liq inkasso topshiriqnomalari holatlari ko'rib chiqildi, shular asnosida aytish mumkinki, Banklarni kassa ishini tashkil etisg hamda tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda bankning ichki instruktiv materiallari va nizomlari ishlab chiqilmagan. Bularga banklarning ichki nizomi va mansabdar shaxslarni me'yoriy hujjatlari, burchlarini taqsimoti va naqd pul va boshqa qiymatliklarni inkassatsiya qilish to'g'risidagi qarori kabilar tekshirilishidir. Bularni borligi banklarda kassa ishi yurituvchisini ratsional tashkil qilishga yordam beradi va xodimlarni o'z vazifalariga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Naqd pul berish uchun shartnomaga xulosa yasashga va xizmat ko'rsatish jarayonida banklar tomonidan tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Ko'p hollarda bankdan qabul qilinayotgan hujjatlar to'liq emasligi yoki to'la rasmiylashtirilmagani aniqlanmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida tijorat banklarida kassa ishini tashkil qilish bilan bog'liq operatsiyalar mamlakatda bank sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd qilish mumkin shuningdek, tijorat banklarida kassa ishi, naqd pul va boshqa qiymatliklar bilan bog'liq operatsiyalar hamda ularning nazorati, audit ushbu sohadagi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati va tijorat banklarining muhofazasi bilan bog'liq ushbu masalada belgilangan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash muhim hamda ushbu jarayonning nazoratini muntazam tashkil qilish, auditini xorijiy tajribalar



asnosida yanada takomillashtirish rivojlanayotgan mamlakatimizning bank sohasi uchun dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida mavjud tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilish auditi takomillashtirishva rivojlantirish uchun quyidagi takliflarga bildirib o‘tmoqchimiz:

- banklarda kassa ishida inson omilini kamaytirish va bu sohada rivojlangan davlatlar tajribalarini o’rgangan holda yechim topish;
- tijorat banklari uchun ushbu operatsiyalarini amalga oshirishda bir qancha yengilliklar yaratish va bank sohasini yanada rivojlantirishni chora-tadbirlar olib borish;
- tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilish auditini takomillashtirish uchun xorijiy tajribalarni o’rganish hamda milliylashtirish orqali sohada keng qo’llash;
- tijorat banklarida yuqorida keltirilgan holatlar bo'yicha qonunchilikni soddalashtirish hamda takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. A.Calystus, E.Kiganda va J.Otsyulah(2022), “Cash Management and Financial Value of Commercial Banks in Kenya” American Journal of Accounting ISSN 2789-3156 (Online) Vol.4, Issue 1, pp 50 - 58, 2022
2. Oganda, A. J., Mogwambo, V. A., & Otieno, S. (2018). Effect of Cash Reserves on Performance of Commercial Banks in Kenya: A Comparative Study between National Bank and Equity Bank Kenya Limited. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 8(9), 685–704.
3. Z.Z.Xudayberganova (2022) “Тижорат банкларида масофавий банк хизматларини такомиллаштириш йўналишлари” Moliya va Bank ishi Jurnali 3 (2022), 22-28.
4. B.B.Izbosarov (2023) “Тижорат банклари активлари ликвидилигини таъминлашнинг долзарб масасалалари” Moliya va Bank ishi Jurnali 4 (2022), 22-28.
5. N.X.Tursunov (2023) “BANKLARDA VALYUTA OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI” Innovations in technology and science education, SJIF:2023: 5.505.
6. Markaziy Bank ma’limotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. [Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki \(cbu.uz\)](http://cbu.uz)